

## DARSLIKDA YORITILGAN ZULFIYAXONIM MAVZUSINI STEAM YONDASHUVI ASOSIDA O'RGANISH

*Muxtorqulova Rushona Zohidjon qizi*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika iinstituti 2-bosqich talabasi*

*@mail:muxtorqulovarushona@gmail.com*

*Telefon raqam: +998978162266*

*Abdurazaqov Fazliddin Abdunabiyevich*

*Denov tadbirkorlik va ppedagogik instituti doktoranti*

*@manzil: termiz\_region@mail.ru*

*Telefon: +99891-711-84-84 Telegram:+99897-807-11-12*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Zulfiyaxonimning ijodiy faoliyatini adabiyot fanida o'qitishda o'quvchilarda STEAM yondashuv asosida tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetensiyalarini shakllantirish. 6-sinf "Zulfiya" mavzusi yuzasidan bilim va ko'nikmalar shakllantirishning yangicha yondashuvini tavsiya qiladi..

**Kalit so'zlar:** Prezident Farmoni, konsepsiya, STEAM yondashuv, amalga oshirish bosqichlari, "Zulfiya" mavzusi, ijodi, hayotiy faoliyati, rejalashtirilgan vazifalar, topshiriqlar va muammolar.

## STUDYING THE SUBJECT OF ZULFIYAKHANIM COVERED IN THE TEXTBOOK BASED ON THE STEAM APPROACH

*Mukhtorqulova Rushona Zahidjan qizi*

*Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy 2nd stage student*

*@mail:muxtorqulovarushona@gmail.com*

*Phone number: +998978162266*

*Abdurazaqov Fazliddin Abdunabiyevich*

*Doctoral student of the Denov Entrepreneurship and Pedagogical Institute*

*@manzil: termiz\_region@mail.ru*

*Telefon: +99891-711-84-84 Telegram:+99897-807-11-12*

**Annotation:** In this article, Zulfiya Khanim's creative activity in the teaching of literary science is aimed at forming students' competencies of critical thinking, independent information search and analysis based on the STEAM approach. Recommending a new approach to the formation of knowledge and skills on the topic "Zulfiya" for the 6th grade.

**Keywords:** presidential decree, concept, STEAM APPROACH, stages of implementation, "Zulfiya" theme, creativity, life activity, planned tasks, assignments and problems.


STEAM ta'limi – bu axborotlashgan zamon talabi. Hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlod raqamli texnologiya olamining yutuqlaridan foydalanishni xohlaydi. Konstruktorlash, modellashtirish, robototexnika hamda dasturlash sohasiga qiziquvchi yoshlarimiz safi kun sayin ortib bormoqda. Jahonda texnika va texnologiyalarning shiddat bilan keskin rivojlanib borishi, fan va ta'lim tizimini yangi hamda zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etishni taqozo etadi. Bunday yondashuvli ta'lim STEM va STEAM ta'limi bo'lib, hozirda ta'lim tizimi rivojlangan Finlandiya, Germaniya, Yaponiya, Xitoy, AQSh va Rossiya davlatlari ta'lim jarayonlariga qo'llanilib kelmoqda. Xuddi shu jarayon Yangilanayotgan O'zbekiston ta'lim tizimida ham joriy etilmoqda va ta'lim zamon talablariga moslashtirilib texnologiyalashtirilmoqda, ushbu jarayon fundamental bilimlarni funksional bilimlarga ko'chirish, ularni amaliyotda faol qo'llash jarayoni orqali fanlar integratsiyasi, muammolar yechimining yangicha yo'llarini izlash, lozim topilsa, kashf etishga yo'naltirish kabi vazifalarni qo'yadi. Agar an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilim berish va bu bilim asosida fikrlash va ijod qilish bo'lsa, STEAM yondashuvida egallangan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtiriladi. Bu o'quvchilarga nafaqat bilimga ega bo'lish, balki, ularni amalga qo'llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi.

2019-yilning 29-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini rivojlantirish to'g'risida" Farmoni e'lon qilindi. Farmonda keltirilishicha,

2019-2021-yillar davomida Respublikaning har bir hududida bosqichma-bosqich STEAM (fan, texnologiya, injenering, san'at va matematika) yo'nalishlariga ixtisoslashtirilgan "Prezident maktablari"ni tashkil etish vazifasi belgilab qo'yildi.

Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali O'zbekiston Respublikasining xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishda STEAM fanlarni va tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlari joriy etiladi. Shuni nazarda tutgan holda ushbu maqolada adabiyot ta'limida STEAM yondashuvini qanday amalga oshirish to'g'risida mulohaza yuritamiz.

STEAM Amerikada ishlab chiqilgan yondashuv bo'lib, o'quvchilarning fan, texnologiya, injenering, san'at va matematika fanlari yoki bir-biriga bog'liq boshqa turdosh fanlarning o'zaro integratsiyasi asosida amalga oshiriladi. STEAM o'quvchilarda muammolarni keng qamrovli tushunish, ijodiy fikrlash, muhandislik yondashuv, tanqidiy fikrlash, ilmiy metodlarni tushunish va qo'llash hamda dizayn asoslarini tushunish kabi muhim xususiyatlar va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.



Ta'lim olish jarayonida adabiyot fanini san'at darajasida o'rganish uchun badiiy mahorat masalalarini kengroq tushunish va badiiy asarlarni chuqurroq tahlil etish zarur. Badiiy asar tahlili juda katta mahorat va bilim talab etadi. Shu o'rinda biz she'riy asarlar tahlili xususida so'z yuritmoqchimiz. Maktab darsliklarida she'riyat qoidalari

bilan birgalikda she'riy san'at lar ham o'rganiladi. Buning natijasida o'quvchi so'z sana'tining mohiyatini anglaydi, suratni emas siyratni ko'ra oladi, asarning salmog'ini his qiladi va g'oyaviy mazmunni tushuna oladi. Shu tufayli darslarning qiziqarli va jonli o'tishini nazarga olib quyidagi ta'lim usulidan foydalangan holda tavsiyalar berishga harakat qilmoqchiman. STEAM maktab dasturlariga qo'shimcha sifatida qo'llaniladi. 7-14 yoshdagi o'quvchilarning muttasil ravishda o'tkaziladigan mashg'ulotlarga qiziqishlarini orttiradi. Quyida 6-sinf adabiyot darsida Zulfiya mavzusini STEAM yondashuv asosida tushuntirish usullarini taqdim etmoqchiman.

Amaldagi dasturimizda Zulfiya mavzusi 2 soatga mo'ljallangan bo'lib, shoiraning hayoti va ijodiy faoliyati yuzasidan nazariy bilimlar asosida amaliy ko'nikmalar shakllantiriladi. "Zulfiya" mavzusini STEAM yondashuv asosida tushuntirishda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. Avvalo, ushbu model orqali o'quvchilarda qanday asosiy ko'nikmalarni rivojlantirishga e'tibor qaratiladi. Bu mavzuni yoritishda 3ta asosiy ko'nikma belgilab olinadi:

- savollar berish va muammolarni aniqlash;
- ma'lumotni tahlil qilish va talqin qilish;
- izohlarni tuzish va yechimlarni loyihalash.

2. O'quvchilar nimani bilishlari kerakligi reja asosida belgilab olinadi:

- shoiraning hayoti ;
- ijodiy faoloyati;
- Zulfiya she'riyatining asosiy g'oyaviy xususiyatlari.

3. O'quvchilar nimani tushunishlari kerakligi belgilab olinadi:

- topshiriqni bajarish usullari;
- o'rganilgan bilimlar asosida nima hosil qilishlari.

Adabiyot fanini o'qitishda asosiy maqsad o'quvchilarda og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish ekanligini hisobga olgan holda, STEAM yondashuvi asosida Zulfiya mavzusi yuzasidan bilim va ko'nikmalar quyidagi topshiriqlar asosida hosil qilinadi. 1-topshiriqda o'quvchilar 3 ta kichik guruhlariga ajratiladi.

"Topqirlar" guruhiga she'rlardan misralar yozilgan listlar beriladi va quyidagi savollarga javob topib, ularni yelimli stikerlarga yozish topshirig'i beriladi:

- she'rlari nomlari;
- she'riy asarlari nomlari;
- qo'shimcha tarzda olgan mukofotlari ham yoziladi.

2-topshiriqda esa o'quvchilar she'rlarda keltirilgan tabiat hodisalariga xos o'zaklarni aniqlab yozib chiqadilar va shu so'zlarni jamlab to'rtlik she'r tuzishlari talab etiladi ya'ni o'sha vaqtning o'zida o'quvchilarni ijodkorlik qobilyati ham baholanadi.

Masalan, "Bog'lar qiyg'os gulda" she'rida: bog', gul, chaman, daraxt, tomir, tog'.  
Bog'lar gulga to'lar yaxlit chamanzor,

Bahor tog'lar uzra ufurgan chog'i.

Bulbullar kuylashar ritm ila xor,

Serjilo gurkirar daraxtlar shoxi.

Shoiraning she'rlarida asosan tabiat va Vatan mavzulari yoritilgan, biz bilamizki, STEAM yondashuvida fanlar o'zaro integratsiya asosida bog'liqlikda o'rganiladi. Demak, ijodning ushbu mavzularidan kelib chiqib Tabiiy fanlar va Tarbiya fanlarini adabiyot fani bilan o'zaro bog'lashimiz mumkin va, shu o'rinda ta'kidlash joizki, adabiyot darsligida keldirilgan badiiy yorqinlikni o'quvchilarni chap miya yarim sharini rivojlantirishda yetakchi vositalardan biri sifatida ko'rishimiz mumkin. Zulfiya she'riyati pokiza buloqlardan suv ichgan ijoddir. Ayni shu sababdan uning tinchlik haqidagi, inson ruhiyatini ochib beradigan, tarbiyalaydigan hijron to'g'risidagi, tabiatning ajib bir holati borasidagi she'rlari hech kimni befarq qoldirmaydi. Shu bois shoiraning barcha ayollarga, barcha onalarga, barcha ma'shuqalarga xos, tushunarli, anglanarli bo'lgan she'riyati aslo eskirmaydi. Uning asarlarida halol inson tuyg'ularining porloq yulduzi charaqlab turadi. Zulfiyaning olijanoblik, jasorat, haqqoniy xalq g'ururi, tabiat va insonga nisbatan samimiy tuyg'ular va hurmat, boy ranglar va kutilmagan yangi timsollar bilan bajarilgan lirikasi, kitobxon qalbini larzaga keltiradi, insoniyatning kelajakka bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Ushbu ijodiy g'alayonlarni o'quvchi o'zida xis etishi, ijtimoiy, ekologik, ma'naviy va madaniy idrok etish masalasi mavzuni o'rgatish jarayonida markaziy masala bo'ladi.

Bu muammo guruhga yoki yakka o'quvchiga yuklanishi mumkin, jarayon davomida o'quvchi olgan nazariy bilimni amalda qo'llashga harakat qiladi.

Birinchiidan, berilgan she'rni qayta-qayta o'qiydi, natijada mazmunni anglaydi!

Ikkinchiidan, o'quvchi diqqatini jamlaydi va bir muammoning ustida bosh qotiradi, natijada yechim topa oladi, bundan o'ziga ishonch tuyg'usi ortadi.

Uchinchiidan, she'riyat qoidalarini nazariy ma'lumotlarni mustahkam o'rganib oladi, natijada shakl va mazmun mohiyatini farqlay oladi. Sababi she'riy san'atlar yo so'z shakli bilan yoki mazmuni bilan bog'liqku.

To'rtinchiidan, ijodkorlikka ishtiyoq uyg'onadi, ya'ni qiziqish natijasida o'zi ham qayta shunaqa bayt yoki she'r yozishi mumkin.

Beshinchiidan, ma'lum muammoli vaziyatlar, aslida murakkab emasligini, vaziyat yechimini topa olishni o'rganadilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mohir pedagoglar darsni san'at darajasida o'tadilar. Muammoli ta'lim usullaridan foydalanish orqali o'quvchining mustaqil ishlashga o'rgatishi bilan darsning samaradorligini oshirish mumkin. Muammoli ta'lim usulidan barcha fanlarni o'qitishda foydalanish mumkin. Zulfiya lirikasi teran tafakkur va jo'shqin hissiyot vobastaligidan hosil bo'lgan she'riyatdir. Shoira lirik qahramoni ko'pda yuksak intellekt sohibasi ekanligi sezilib turadi. U biroz o'ychan, ba'zan

falsafiy, ba'zida esa jiddiy va ta'sirchan. Shoira ma'naviy-ruhiy izlanishlarida, poetik timsol yaratish jarayonida his-tuyg'ular manzarasi, kechinma tarangligi, o'tkir dramatik vaziyat va kolliziyalar bo'rtib turadi. Unda makon va zamon chegarasining qamrovlari keng, o'tmish, bugun va kelajak voqeligi inson taqdiri, ertasi bilan esh tasvirlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712-son Farmoni.
2. Djenis Van Kliv. STEAM fanlar blikidagi fanlar kesimida 200ta tajriba. Qo'llanma. -Moskva: 1995-y.
3. Ahmedov Sunnat 6-adabiyot darsligi. - Toshkent : "Ma'naviyat", 2017.-160b